

RUS TILI O'RGANISH USULLARI

Nodirova Xursanoy Ibragimovna

*Toshkent davlat stomatologiya instituti akademik litseyi Rustili va adabietini fani
oqituvchisi*

Annotatsiya: *Rus tili (ruscha: русский язык) — rus xalqi tili, jahonda keng tarqalgan tillardan. Avval SSSRda, so'ng Rossiya Federatsiyasi va MDHda millatlararo va davlatlararo aloqa vositasi. Rus tili Birlashgan Millatlar Tashkilotidagi 6 rasmiy tildan biri sanaladi. Ukrain va belorus tillari bilan birgalikda hindevrova tillari oilasiga kiruvchi slavyan tillarining sharqiy guruhini tashkil etadi. O'tgan asrning 80-yillaridagi ma'lumotlarga ko'ra, rus tilida so'zlashuvchilarning umumiy soni 250 million kishidan, jumladan, hozirgi Rossiya Federatsiyasi va MDH mamlakatlarida 185 million kishidan iborat. Bundan tashqari, mazkur hududlardagi 60 milliondan ortiq kishi Rus tilida erkin so'zlasha oladi.*

Kalit so'zlar: *Rus tili Birlashgan Millatlar Tashkilotidagi 6 rasmiy tildan biri sanaladi.*

Rus tili (ruscha: русский язык) — rus xalqi tili, jahonda keng tarqalgan tillardan. Avval SSSRda, so'ng Rossiya Federatsiyasi va MDHda millatlararo va davlatlararo aloqa vositasi. Rus tili Birlashgan Millatlar Tashkilotidagi 6 rasmiy tildan biri sanaladi. Ukrain va belorus tillari bilan birgalikda hindevrova tillari oilasiga kiruvchi slavyan tillarining sharqiy guruhini tashkil etadi. O'tgan asrning 80-yillaridagi ma'lumotlarga ko'ra, rus tilida so'zlashuvchilarning umumiy soni 250 million kishidan, jumladan, hozirgi Rossiya Federatsiyasi va MDH mamlakatlarida 185 million kishidan iborat. Bundan tashqari, mazkur hududlardagi 60 milliondan ortiq kishi Rus tilida erkin so'zlasha oladi.

Rus tili juda uzoq va murakkab rivojlanish tarixiga ega. Eng qadimgi rus adabiy tili Kiyev Rusida shakllangan bo'lib, u XIV asrgacha sharqiy slavyanlar uchun umumiy til hisoblangan. XIV-XV asrlarda qadimgi rus tili 3 tilga — velikorus (rus), ukrain va belorus tillariga bo'linib ketadi. Shu davrdan boshlab rus tili, boshqacha aytganda, velikorus tili markazi Moskva bo'lgan Rus davlati hududida rivojlana boshlaydi.

Rus tili lahja va shevalari 2 ga: shimoliy velikorus ("o" lovchi) va janubiy velikorus ("a" lovchi) guruhlariga bo'linadi; o'rta rus shevalari mazkur har ikkala guruh xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. XVI-XVII asrlarda shimoliy va janubiy lahjalar chegarasida bo'lgan Moskvada o'ziga xos koyni (umumiy lahja) shakllanib, u namunali tilga aylanadi.

Qadimgi rus tili xususiyatlarini saqlab qolgan adabiy til bilan so'zlashuv tili o'rtasida sezilarli tafovutlar paydo bo'lib, XVII asrdan boshlab rus millati va rus

milliy tili shakllana boshlaydi. XVII asr oxiri — XVIII asr boshidagi adabiy til boy va ifodali, ko'plab g'arbiy yevropa o'zlashmalariga ega esada, barqaror bo'lmagan. Uni tartibga solish va barqarorlashtirishda M. V. Lomonosovning xizmatlari katta bo'lgan. XIX asr boshlarida adabiy tilning xalqchilligi bosh muammo hisoblanib, bu muammoning yechimida I. A. Krilov, A. S. Griboyedov, ayniqsa, A. S. Pushkin ijodi alohida o'rin tutadi. Ayni Pushkin ijodida umummilliy rus adabiy tilining shakllanishi yakun topadi. Pushkinning buyuk xizmati shundaki, uning ijodida adabiy Rus tilining umummilliy me'yorlari ishlab chiqilgan va mustahkamlangan hamda bu me'yorlar Pushkinning zamondoshlari va undan keyingi avlod tomonidan qabul qilingan.

Adabiy tilning boyishiga XIX-XX asrlardagi rus adabiyotining mumtoz vakillari ulkan hissa qo'shdilar; XIX asrning 2-yarmidan boshlab uning rivojlanishiga yozuvchilar bilan bir qatorda jamoat arboblari, fan va madaniyat namoyandalari ham katta ta'sir ko'rsatib kelmoqdalar. Oktyabr to'ntarishidan so'ng o'zgacha ijtimoiy tuzum hamda fan va texnikaning rivojlanishi tufayli rus tilida, ayniqsa, uning leksikasida, sezilarli o'zgarishlar paydo bo'ldi, adabiy tilning umumiy demokratlashuvi kuchaydi.

Rus tili flektivstatetik tillardan bo'lib, unda 3 ta grammatik jins turkumi, otlarning 3 xil turlanishi, fe'llarning 2 xil tuslanishi mavjud; ko'makchilar predlog ko'rinishida, ya'ni o'zi bog'lanadigan so'zlar oldidan joylashadi.

Hozirgi rus alifbosi kirill yozuvi (kirillitsa) asoslangan (qarang: Rus alifbosi). Unda bitilgan eng qadimgi yodgorliklar XI asrga taalluqlidir.

XX asr o'rtalaridan boshlab butun jahonda rus tilini o'rganish keng tarqaladi. Rus tili dunyodagi 100 dan ortiq mamlakatda o'qitiladi. 1967-yilda Rus tili va adabiyoti o'qituvchilarining xalqaro assotsiatsiyasi, 1973-yilda A. S. Pushkin nomidagi Rus tili instituti tashkil etilgan. Sho'ro davrida O'zbekistonda va MDHning bir qancha mamlakatlarida rus tilini o'qitish va o'rgatishga alohida e'tibor berilgan, hatto bu jarayon majburiy asosda olib borilgan. Hozirgi paytda ham respublikamizda rus tilini o'rgatish, avvalgiday majburiy bo'lmasada, o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Rus tilini qancha paytda o'rgansa bo'ladi?

Dunyoda necha milliard odam bo'lsa, Xudoning qudrati bilan hech kimning barmoq izlari bir-biriga o'xshamaydi. Inson xarakteri, intellekti, zehni, xotirasi ham shunday. Har bir kishi o'zgacha olam, men uchun ishlab chiqilgan qoida sizga umuman mos kelmasligi yoki u sizda butunlay teskari reaksiya ko'rsatishi tabiiy. Tilni qancha paytda o'rganish, avvalo, o'quvchining o'ziga, mehnatkashligi va harakatiga, undan keyin bilimiga bog'liq. Misol uchun, rus tilidan oz-moz xabaringiz bo'lsa, Siz atigi yarim yilda grammatikani yaxshi o'rganib olasiz. Qiynalmasdan gapirib ketishingiz uchun esa 4 oy yetarli.

Rus tilini 0 dan boshlaydigan abituriyentlarga grammatikani o'rganish uchun 1 yil, gapirish uchun 6 oy kerak bo'ladi. Albatta, bu nisbiy, o'rtacha hisobda olingan

muddatlardir, hammasi harakatingizga bog‘liq. Ko‘chadagi “3 oyda rus tilini mukammal o‘rganing”, “Rus tili 1 oyda!”... kabi reklamalarning bari uydirma, shaxsan men uchun bu safсата. Ta‘lim biznes emas, uni marketing piarlari bilan aralashtirib, o‘quvchilarga yolg‘on va‘da berishdan qochish kerak. Buni gunoh deb bilaman, yanayam har kimning vijdoniga havola...

Rus tilini o‘rganuvchilar eng ko‘p nimadan qiynalishadi?

Uyqusizlikdan! (kuladi) “Registon” ta‘lim loyihasining maqsadi qadriyatimga to‘g‘ri kelgani uchun bu jamoaga qo‘shilganman. Xuddi men singari boshqa o‘qituvchilar ham universitetni “karidorda bitirib”, bu yerga adashib kelib qolmagan. Hammamiz yagona maqsad yo‘lida bir oilaga birlashib, O‘zbekiston ta‘lim tizimini dunyoda birinchi o‘ringa chiqarish yo‘lida mehnat qilayapmiz. Men aynan shu yerga kelib, o‘zbek tilini o‘rgandim. Mana, hozir siz bilan garchi aksentlar bilan bo‘lsa-da, o‘zbek tilida gaplashib turibman. Bunda atrofimdagi sog‘lom muhitning o‘rni beqiyos!

Demogchimanki, odamda aniq maqsad bo‘lsa, hech narsa qiyin bo‘lmaydi. Bu yo‘ldagi mashqatlar sizga azob emas, rohat beradi. O‘quvchilarim eng ko‘p o‘zbek tili grammatikasida uchrataydigan mavzularda qiynalishadi. Men ularga doim nimanidir tushunmasa, faqat yod olishni tavsiya qilaman. Ko‘proq hayotiy kino va filmlar ko‘rishlarini aytaman. Tushunmayapsiz, miyangiz qabul qilmayaptimi, lug‘at titkilab, vaqtingizni yo‘qotmang. Ruchka va daftar olib, o‘zingiz yoqtirgan kinoni rus tilida tomosha qiling!

Bilasizmi, ko‘pchilik rus tilidan bilimi yaxshi bo‘ladi, lekin kerakli vaziyatda gapini yo‘qotib qo‘yadi. Buning uchun sizga filmlar juda katta yordam beradi. Bunda turli holatlar: aksirganda aytiladigan jumladan tortib, taksida ketayotib, “shu yerda tushib qolay”, kafeda taomlanib bo‘lgandan so‘ng “hisobni keltiring”, ashula tinglayotib “ovozini ko‘taring”, ishga kech qolgan paytda rahbarga vaziyatni tushuntirish... yahokazo holatlar aks etgan bo‘ladi. Tilni sahnalashtirilgan filmlardagi holatlar orqali o‘rgansangiz, jumalalar xotirangizga mustahkam va tezroq o‘rnashadi.

“Razgavor” guruhlarimizda esa o‘quvchilarim asosan kelishiklarda ko‘p xato qilishadi, qiynalishadi. Bu paytda ularga kelishiklarning funksiyasini yaxshilab tushuntiraman, kichik-kichik hikoya va ertak kitoblar o‘qishni tavsiya qilaman. Chunki kelishiklarni o‘zlashtirishda mutolaaning o‘rni judayam katta!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Домуладжанов, И. Х., Махмудов, С. Ю., Домуладжанова, Ш. И., & Полвонов, Х. М. (2020). Нормативы предельно допустимых выбросов вредных веществ в атмосферу от Кувасайского подсобного предприятия железобетонных изделий. *Universum: технические науки*, (4-1 (73)), 18-25.
2. Полвонов, Х. М., Хамдамова, Ш. Ш., Давлятова, З. М., & Ибрагимова, Г. О. К. (2019). Физико-химическое обоснование процесса получения хлорат-кальциевого дефолианта с использованием отходов содового производства. *Universum: технические науки*, (11-3 (68)), 14-26.
3. Полвонов, Х. М., Хамдамова, Ш. Ш., Давлятова, З. М., & Ибрагимова, Г. О. К. (2019). Физико-химическое обоснование процесса получения хлорат-кальциевого дефолианта с использованием отходов содового производства. *Universum: технические науки*, (11-3 (68)), 14-26.
4. Polvonov, X. (2011). Isothermal solubility diagram of the 2Na^+ , Mg^{2+} | 2Cl^- , 2ClO_3^- - H_2O quaternary system at 20 and 100° C. *Scienceweb academic papers collection*.
5. Polvonov, X. M. (2020). Technological calculations for calcium chlorate defoliant. *Экономика и социум*, (12-1), 224-230.
6. Жумабоев, А. Г., Базаров, А. А., & Полвонов, Х. М. (2020). Каталитик риформинг курилмаларидан ағду-этан блоки курилмасига “курук газ” узатишда газ таркибидаги суюқ углеводородларни ажратиб олиш схемасини тадбиқ этиш. *Science and Education*, 1(3), 212-216.
7. Melibaevnaa, B. K., & Toshtemirovna, M. K. (2023). PNEUMONIA IN NEWBORN BABIES ON VENTILATORS. *World Bulletin of Social Sciences*, 19, 16-17.
8. Mahmudova, H. T. (2022). FEATURES OF PROVIDING HIGHLY SPECIALIZED MEDICAL CARE TO PREGNANT WOMEN WITH COVID-19 IN OBSTETRIC PRACTICE. *Scientific Impulse*, 1(5), 1329-1332.
9. Mahmudova, H. T. (2022). BEMORLARNI PARVARISH QILISHNING AHLOQIY ME'YORLARI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 218-221.
10. Maxmudova, X. T. (2022). TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA TIBBIY FANLARNI O'QITISHNING INTERFAOL USULLARINI QO'LLASHNING SAMARADORLIGI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 826-830.
11. Isaqov, X., Mamatqulova, S., & Obidova, B. (2022). CHEMICAL COMPOSITION AND MEDICINAL PROPERTIES IN THE PAPAYA (CARICA PAPAYA L.) PLANT. *Science and Innovation*, 1(8), 867-872.

12. Isaqov, X., Mamatqulova, S., & Obidova, B. (2022). MACRO AND MICROELEMENT COMPOSITION AND MEDICINAL PROPERTIES IN THE GUAVA (PSIDIUM GUAJAVA L.) PLANT. Science and Innovation, 1(8), 873-877.

13. Абдусаматовна, М. С. (2022). BRASSICA RAPA L. ОИЛАСИГА МАНСУБ ТУРП ИЛДИЗМЕВАСИНИНГ ТАРКИБИДАГИ ОРГАНИК МОДДАЛАР ТАВСИФИ. О'ЗБЕКISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 321-324.

14. Abdusamatovna, M. S., & Maqsudovna, X. S. (2022). SHOLG'OM O'SIMLIGI TARKIBIDAGI MODDALARNI KIMYOVIY TARKIBINI TAHLIL QILISH. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 310-314.

15. Xayotillo, I., & Abdusamatovna, M. S. (2022). ANJIR DARAXTINING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 141-143.

16. Isaqov, X., Mamatqulova, S., & Obidova, B. (2022). FYABA (PSIDIUM GUAJAVA L.) O'SIMLIGINING MAKRO VA MIKROELEMENT TARKIBI HAMDA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI. Science and innovation, 1(D8), 873-877.